

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PhD.03/05.04.2025.Qx.02.13 RAQAMLI ILMYIY KENGASH**

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

KADIROVA GULNOZ ARALOVNA

**SUG‘ORILADIGAN O‘TLOQI - BO‘Z VA OCH TUSLI BO‘Z
TUPROQLARI TURLI FOSFAT REJIMIDA KUZGI BUG‘DOYNI
O‘G‘ITLASH**

06.01.04 – Agrokimyó

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Kadirova Gulnoz Aralovna

Sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z va och tusli bo‘z tuproqlari turli fosfat rejimida kuzgi bug‘doyni o‘g‘itlash.....

Кадирова Гулноз Араловна

Удобрение озимой пшеницы при различном фосфатном режиме на орошаемых лугово-сероземных и светло сероземных почвах.....

Kadyrova Gulnoz Aralovna

Fertilization of winter wheat under different phosphate regimes on irrigated Meadow-sierozems and light sierozems

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PhD.03/05.04.2025.Qx.02.13 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

KADIROVA GULNOZ ARALOVNA

**SUG‘ORILADIGAN O‘TLOQI - BO‘Z VA OCH TUSLI BO‘Z
TUPROQLARI TURLI FOSFAT REJIMIDA KUZGI BUG‘DOYNI
O‘G‘ITLASH**

06.01.04 – Agrokimyo

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Qx892 raqam bilan ro‘yxatga olingan

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida(www.samdu.uz) va «Ziyonet» va Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xayitov Mamadiyor Allayarovich**
Qishloq xo‘jalik fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Sanaqulov Akmal Lapasovich**
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor
Atabayev Ma’ruf Mahmudovich
qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvch PhD 03/05.04. 2025 Qx.02.13 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « ____ » _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140400, Samarqand viloyati, Jomboy tumani, Sh.Burxonov ko‘chasi 2A uy. Tel.: (0366) 240-38-47, E-mail: devonxona@samdu.uz). Samarqand davlat universiteti, Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ ____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy.Tel.: (+99897) 615-13-44.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil « ____ » _____ № ____ – raqamli reestr bayonnomasi)

F.X.Xashimov
Ilmiy kengash raisi,
q.x.f.d. professor

Sh.A.Xazratkulov
Ilmiy kengash kotibi,
q.x.f.n., dotsent

E.Umrzakov
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
q.x.f.d.professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butun dunyoda 2022-yil jami 780,5 mln tonna don yetishtirilgan. G'alla yetishtirishda yetakchi davlatlar: Xitoy, Hindiston, Rossiya, AQSH va Avstraliya hisoblanadi¹. Ular orasida Xitoyning ishlab chiqarishi dunyoda birinchi o'rinni egallaydi, bu dunyoda ishlab chiqarilgan mahsulotning 1/6 qismini tashkil qiladi. Shimoliy Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlari katta miqdorda don sotib oladi va istemol qiladi. Kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli hosil etishtirish uchun tashqi omillarga chidamli yangi intensiv navlarni yaratish, turli tuproq-iqlim sharoitlarida ularni o'g'itlash tizimini ishlab chiqish, sug'oriladigan tuproqlardan samarali foydalanish va tuproq unumdorligini saqlash va oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan agrotexnologiyalarni joriy etish hamda ekinlar hosildorligini oshiruvchi va donning sifatini yaxshilovchi resurstejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Dunyoda aholi sonining yildan yilga oshib borishi, yetishtirilgan donning bir qismini jahon bozorida sotish, tuproq unumdorligini oshirish va sug'oriladigan tuproqlardan samarali foydalanish, kuzgu bug'doydan yuqori va sifatli hosil etishtirish kabi muammolar mavjud. Bu muammoni hal qilishda oziq-ovqat xavfasizligini ta'minlash, tuproq unumdorligini oshirishda o'g'itlardan samarali foydalanish, kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli hosil olishni ta'minlaydigan ilmiy asoslangan resurstejamkor agrotexnologiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda 2022-yil hosili uchun jami 1 mln. 33 ming 104 gektar maydonga boshqoli don ekinlari ekilgan bo'lib, 7 million 800 ming tonna hosil olingan bo'lsa, 2023- yilda Respublika bo'yicha 8,1 million tonna don hosil olinib, o'rtacha hosildorlik 70,5 s/ga tashkil etgan². 2024-yilda Respublika bo'yicha 9 million tonna don hosil olingan. Respublikamizda sug'oriladigan va lalmi yerlarda kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda yangi yuqori hosilli, kasallik va zararkunandalarga chidamli bug'doy navlari keng joriy etilmoqda. Turli tuproq - iqlim sharoitlarida kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda mineral o'g'it turi, me'yori, qo'llash usullari va muddatlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Sug'oriladigan yerlarda tuproqning oziq moddalar bilan ta'minlanish darajalarini e'tiborga olgan holda qo'llaniladigan mineral o'g'it me'yorlarining tuproq oziq rejimiga, kuzgi bug'doyning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatiga ta'sirini o'rganish, iqtisodiy va bioenergetik jihatdan eng samarali variantlarni ishlab chiqarishga joriy etish amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-fevraldagi

¹<https://grainrus.com/novosti-kompanii/articles/mirovye-proizvodstvo-pshenitsy/>

²https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-unining-sifati-tabiati-hodisidan-zararlangan-bugdoyzorlar-yoxud-chorva-mollari-ozuqasiga-tasir-etuvchi-omillar_384006

“O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5009-son Qarorlari bo‘yicha “...qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash va jadal rivojlantirish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo‘jalik ekinlarining yangi navlarini yaratish va ularni parvarishlash texnologiyasini takomillashtirish, oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan”. Bu borada qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda ekinlardan yuqori va sifatli hosil yetishtirish, turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishning ilmiy asoslangan agrotexnologiyalarini ishlab chiqishda malakali kadrlarni tayyorlash sohada asosiy vazifalardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-noyabrdagi PQ-10-son “G‘alla yetishtirish va sotishda erkin raqobatni ta‘minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-iyundagi 227-son “2023-yil hosilidan bug‘doy xarid qilish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyundagi 325-son “2024-yil hosilidan bug‘doy xarid qilish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Respublika Fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Turli tuproq-iqlim sharoitlarida kuzgi bug‘doy hosildorligini oshirishda mineral o‘g‘itlarni samaradorligi bo‘yicha E.A.Dar, Y.Du, X.Wang, V.N.Remeslo, S.X.Dzanagov, A.A.Amanov, Z.F.Ziyadullayev, kuzgi bug‘doyni resurs-tejovchi texnologiyalar asosida yetishtirish orqali yuqori hosil olish S.Ren, S.Wang, G.A.Lavronov va N.G.Malyuga tadqiqotlarida, kuzgi bug‘doyning kasallik va zararkunadalariga chidamli, yuqori hosilli navlarini yaratish va agrotexnikasini yaxshilash P.P.Luk‘yanenko, N.Xalilov, P.Bobomirzayev G‘.G‘aybullayev, kuzgi bug‘doydan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda mineral o‘g‘itlarning me‘yor va nisbatlari X.N.Atabayeva, J.Sattarov, Z.A.Ibragimova, N.I.Irnazarova, B.M.Azizov, R.Siddiqov, B.Atoev, N.Yodgorov, fosfat ta‘minoti turlicha bo‘lgan tuproqlar sharoitida fosforli o‘g‘itlarning tuproq tarkibidagi harakatchan fosfor miqdori va kuzgi bug‘doy hosildorligiga ta‘siri A.U.Alpibayev, F.G.Ryuchkov, M.Raximov, N.M.Ibragimov, L.A.Mirzayev, A.Dehqonov, Sh.Xakimov, M.Xayitov, M.Mashrabov kabi xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

Ammo, Samarqand viloyati o‘tloqi-bo‘z va och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida fosfat ta‘minoti turlicha bo‘lganda qo‘llaniladigan mineral o‘g‘itlar me‘yori va nisbatlarini tuproq oziq rejimiga, kuzgi bug‘doyning o‘sishi,

rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida «Tuproq unumdorligini oshirish, o'g'itlash tizimini takomillashtirish, o'simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilishni uyg'unlashgan agrotexnologiyalarini joriy etish» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida (2020-2022 yy.) bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Samarqand viloyati o'tloqi-bo'z va och tusli bo'z tuproqlarning fosfat ta'minoti turlicha bo'lgan sharoitlarda mineral o'g'it me'yor va nisbatlarini tuproq oziq rejimiga, kuzgi bug'doy navlarining o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va don hosili sifatiga ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sug'oriladigan o'tloqi-bo'z va och tusli bo'z tuproqlarning dastlabki agrokimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash;

fosfor ta'minoti turlicha bo'lgan tuproqlar (o'tloqi-bo'z va och tusli bo'z) sharoitida qo'llanilgan mineral o'g'it me'yor va nisbatlarining tuproq oziq rejimiga ta'sirini aniqlash;

turli fosfat ta'minotida mineral o'g'it me'yor va nisbatlarini kuzgi bug'doyning "Aleksyeich" va "Bezostaya 100" navlari o'sishi va rivojlanishiga ta'sirini aniqlash;

qo'llanilgan mineral o'g'it me'yor va nisbatlarining kuzgi bug'doy navlarining hosildorligi va donning sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash;

qo'llanilgan mineral o'g'itlar tarkibidagi oziq moddalarning foydalanish koeffitsiyentlari va ular orasidagi bog'liqlikni aniqlash;

turli fosfat ta'minotida qo'llanilgan mineral o'g'it me'yor va nisbatlarini kuzgi bug'doy yetishtirishdagi iqtisodiy va bioenergetik samaradorligini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida sug'oriladigan o'tloqi-bo'z va och tusli bo'z tuproqlar, kuzgi bug'doyning "Aleksyeich" va "Bezostaya 100" navlari, mineral o'g'itlardan: ammiakli selitra, superfosfat va kaliy xlorid o'g'itlari olingan.

Tadqiqotning predmeti o'g'itlarni turli me'yor va nisbatlari, tuproqdagi oziq moddalar miqdori, kuzgi bug'doy o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi, donning sifat ko'rsatkichlari, oziq moddalarni olib chirishi, mineral o'g'itlar tarkibidagi oziq moddalardan foydalanish koeffitsiyenti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dala tajribalari umumqabul qilingan "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari", "O'simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot ishlari", "Методика полевых и вегетационных опытов с хлопчатником в условиях орошения" qo'llanmalari bo'yicha, tuproq va o'simlik tahlillari "Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах", "Агрохимические методы исследования почв", "Методы агрохимических исследований почв", "Практикум по

агрохимии” va “Тuproqning tarkibi xossalari va analizi” qo‘llanmalaridagi uslublar asosida olib borilgan. Olingan ma’lumotlar B.A.Dospexov bo‘yicha dispersion, korrelyatsion, resression va V.G.Mineyev bo‘yicha bioenergetik samaradorlik tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z va och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida fosfat ta‘minoti juda kam ta‘minlanganda mineral o‘g‘itlar nisbati 1,0:0,8:0,6, me‘yori $N_{210}P_{170}K_{126}$, kam ta‘minlanganda mineral o‘g‘itlar nisbati 1,0:0,7:0,5, me‘yor $N_{180}P_{125}K_{90}$ va o‘rtacha ta‘minlanganda esa mineral o‘g‘itlar nisbati 1,0:0,6:0,4, me‘yor $N_{150}P_{90}K_{60}$ kg/ga maqbul mineral o‘g‘it me‘yor va nisbatlari aniqlangan;

o‘tloqi-bo‘z va och tusli bo‘z tuproqlarning fosfat ta‘minoti juda kam, kam va o‘rtacha bo‘lganda mineral o‘g‘it me‘yorlari oshib borishi bilan kuzgi bug‘doyning “Alekseyeich” va “Bezostaya 100” navlarini yetishtirishda tuproqda qo‘lay fosfat rejimi hosil qilib, dastlabki miqdoriga nisbatan 0,9-1,8 mg/kg oshishi isbotlangan;

fosfat ta‘minoti turlicha bo‘lgan o‘tloqi-bo‘z va och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida mineral o‘g‘itlarni turli me‘yor va nisbatda qo‘llanilganda kuzgi bug‘doy navlarining bo‘yi Alekseyeich navida 63,8 - 81,3 va 61,7 - 79,6 sm, Bezostaya 100 navida esa 75,0 - 94,5 va 73,9 - 93,6 sm gacha bo‘lganligi aniqlangan va rivojlanishi yaxshilangan bo‘lsa, hosildorligi yuqori, hamda donning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanganligi ilmiy asoslangan;

fosfat ta‘minoti juda kam bo‘lganda mineral o‘g‘itlar nisbati 1,0:0,8:0,6, me‘yori $N_{210}P_{170}K_{126}$, kam ta‘minlanganda 1,0:0,7:0,5, me‘yor $N_{180}P_{125}K_{90}$ va o‘rtacha ta‘minlanganda esa 1,0:0,6:0,4, me‘yor $N_{150}P_{90}K_{60}$ kg/ga qo‘llanilganda eng yuqori iqtisodiy va bioenergetik samaradorlikka erishilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z va och tusli bo‘z fosfat ta‘minoti turlicha bo‘lgan tuproqlar sharoitida mineral o‘g‘itlarning turli me‘yor va nisbatlari tuproqda qulay fosfat rejimini hosil qilgan. Mineral o‘g‘itlar turli nisbat va me‘yorda qo‘llanilganda tuproq tarkibidagi harakatchan fosfor miqdori dastlabki miqdoriga nisbatan 0,9 – 1,8 mg/kg oshishi ta‘minlangan;

o‘tloqi-bo‘z va och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida mineral o‘g‘itlar me‘yorining oshib borishi bilan kuzgi bug‘doyning Alekseyeich va Bezostaya 100 navlari unuvchanligi 95-96 % gacha va tup soni esa 404 – 443 dona/m² bo‘lishiga erishilgan;

fosfat ta‘minoti turlicha bo‘lgan o‘tloqi-bo‘z va och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida qo‘llanilgan mineral o‘g‘itlar me‘yorilarini oshib borishi bilan kuzgi bug‘doy navlarining bo‘yi ham oshib borgan, bunda Alekseyeich navida 61,7 – 79,6 va 63,8 – 81,3 sm, Bezostaya 100 navida esa 73,9 – 93,6 va 75,0 – 94,5 sm gacha bo‘lganligi aniqlangan;

kuzgi bug‘doyning Alekseyeich va Bezostaya 100 navlari eng yuqori ishonarli hosil olish fosfat ta‘minoti juda kam fonda mineral o‘g‘it $N_{210}P_{170}K_{126}$, fosfat ta‘minoti kam fonda $N_{180}P_{125}K_{90}$, fosfat ta‘minoti o‘rtacha bo‘lgan fonda $N_{150}P_{90}K_{60}$ kg/ga qo‘llanilgan variantlarda ta‘minlanganligi ilmiy asoslangan;

tuproqda tabiiy fosfat ta'minoti oshishi hisobiga mineral o'g'it nisbat va me'yorlarining kamaytirilishi bilan kuzgi bug'doyning har ikkila navida donning sifat ko'rsatkichlari yaxshilangan. Oziq moddalarni olib chiqish ham oshib borgan bo'lsa, qo'llanilgan o'g'itlardan foydalanish koeffitsiyenti kamayib borib, och tusli bo'z tuproqlar sharoitida eng yuqori fosforning o'g'itdan foydalanish koeffitsiyenti Alekseyeich va Bezostaya 100 navlarida 13,0 va 14,4 %, o'tloqi bo'z tuproqlar sharoitida esa 13,3 va 15,0 % bo'lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotlarida dala tajribalari uslublaridan foydalangan holda o'tloqi-bo'z va och tusli bo'z tuproqlarda kuzgi bug'doy yetishtirishda fosfat ta'minoti turlicha bo'lganda qo'llanilgan mineral o'g'it me'yor va nisbatlari samaradorligini asoslash, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, olingan natijalarga dispersion, korrelatsion va regression ishlov berilganligi, natijalar va xulosalarning asoslanganligi hamda ularning respublika va chet el tadqiqotlari bilan taqqoslanganligi, tadqiqotda olingan natijalarning ishlab chiqarish sinovidan o'tkazilganligi va joriy etilganligi, tadqiqot natijalari respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, shuningdek, dissertatsiya natijalari ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qo'llanilgan mineral o'g'it me'yor va nisbatlarini fosfat ta'minoti turlicha bo'lgan och tusli bo'z va o'tloqi-bo'z tuproqlar fosfat rejimiga, kuzgi bug'doy navlarining o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va xosil sifatiga ta'sirini o'rganish, qo'llanilgan o'g'itlarning kuzgi bug'doy yetishtirishdagi bioenergetik samaradorligi bo'yicha yangi ma'lumotlar olinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini fosfat ta'minoti turlicha bo'lgan tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyning "Alekseyeich" va "Bezostaya 100" navlaridan yuqori va sifatli hosil olishni ta'minlaydigan eng maqbul me'yor va nisbatlari aniqlanib, ishlab chiqarishga tavsiyalar berilishi belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand viloyatining o'tloqi-bo'z va och tusli bo'z tuproqlari turli fosfat ta'minotida kuzgi bug'doyni o'g'itlash bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

Samarqand viloyati Oqdaryo tumani o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida 82,1 gektar, Nurobod tumani och tusli bo'z tuproqlari sharoitida 64,9 gektar, jami 147,0 gektar maydonga joriy etilgan.(O'zbekiston Respublikasi Qishloq Xo'jaligi Vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-noyabr 05/05-04-629-son ma'lumotnomasi).Samarqand viloyati Oqdaryo tumani fosfat ta'minoti turlicha bo'lgan o'tloqi-bo'z tuproqlar sharoitida jami 82,1 gektar maydonda ishlab chiqarishga joriy etilgan. Natijada fosfat ta'minoti juda kam o'tloqi-bo'z tuproqlarda mineral o'g'itlar nisbati 1:0,8:0,6 va me'yori $N_{210}P_{170}K_{126}$ kg/ga qo'llanilganda kuzgi bug'doyning Alekseyeich va Bezostaya 100 navlaridan 68,7 va 89,5 s/ga, rentabellik 70,0 va 74,0 %, fosfat ta'minoti kam tuproqlarda mineral o'g'itlar nisbati 1:0,7:0,5 va me'yori $N_{180}P_{125}K_{90}$ kg/ga

qo'llanilganda Alekseyeich va Bezostaya 100 navlaridan 67,8 va 88,2 s/ga, rentabellik 65,0 va 72,0 % hamda fosfat ta'minoti o'rtacha tuproqlarda mineral o'g'itlar nisbati 1:0,6:0,4 va me'yori $N_{150}P_{90}K_{60}$ kg/ga qo'llanilganda Alekseyeich va Bezostaya 100 navlari hosildorligi 67,4 va 87,8 s/ga, rentabellik esa 61,0 va 69,0 % ni tashkil etgan;

Samarqand viloyati Nurobod tumani och tusli bo'z tuproqlar sharoitida jami 64,9 (oltmish to'rt butun o'ndan to'qqiz) gektar maydonda ishlab chiqarishga joriy etilgan. Natijada fosfat ta'minoti juda kam och tusli bo'z tuproqlarda mineral o'g'itlar nisbati 1:0,8:0,6 va me'yori $N_{210}P_{170}K_{126}$ kg/ga qo'llanilganda kuzgi bug'doyning Alekseyeich va Bezostaya 100 navlaridan 67,4 va 86,3 s/ga rentabellik 65,0-70,0 %, fosfat ta'minoti kam tuproqlarda mineral o'g'itlar nisbati 1:0,7:0,5 va me'yori $N_{180}P_{125}K_{90}$ kg/ga qo'llanilganda Alekseyeich va Bezostaya 100 navlaridan 66,8 va 85,5 s/ga, rentabellik 61,0-65,0 % hamda fosfat ta'minoti o'rtacha tuproqlarda mineral o'g'itlar nisbati 1:0,6:0,4 va me'yori $N_{150}P_{90}K_{60}$ kg/ga qo'llanilganda Alekseyeich va Bezostaya 100 navlari hosildorligi 67,1 va 84,9 s/ga, rentabelligi esa 57,0-61,0 % ni tashkil etgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq Xo'jaligi Vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-noyabr 05/05-04-629-son ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Dala va ishlab chiqarish tajribalari 2020-2022-yillar davomida Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti aprobtasiya komissiyasi tomonidan tekshirilgan va ijobiy baholangan. Ilmiy tadqiqot ishining asosiy natijalari Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti doktorantlari, tayanch doktorantlari va professor-o'qituvchilarining yillik ilmiy hisobot konferensiyalarida (2020-2022-yillar), Respublika ilmiy-amaliy seminarlarida, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan, xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda 4 ta maqola, shuningdek 1 ta ishlab chiqarishga tavsiyalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya isining **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, uslublari, obekti va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mineral o‘g‘itlarning tuproq oziq rejimiga, kuzgi bug‘doyning o‘shishi, rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatiga ta’siri”** deb nomlangan birinchi bobida xorijiy va respublikamiz olimlarining ushbu mavzu doirasida olib borgan ilmiy tadqiqotlari sharhi keltirilgan. Bunda, dunyo miqyosida kuzgi bug‘doy ekin maydoni, olingan hosildorlik, turli mineral o‘g‘itlarni qo‘llashning kuzgi bug‘doyning o‘shishi, rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari tahlil etilgan. Xulosa sifatida fosfat ta‘minoti turlicha bo‘lgan och tusli bo‘z va o‘tloqi-bo‘z tuproqlar sharoitida o‘g‘itlarni kuzgi bug‘doy o‘shishi, rivojlanishi, hosildorligi va donning sifatiga ta’siri O‘zbekistonda ilmiy asosda o‘rganilmaganligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o‘tkazish uslublari va sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar olib borilgan joyning tuproq-iqlim sharoitlari va tadqiqot o‘tkazish uslublari, tajriba dalasining dastlabki agrokimyoviy tavsifi, kuzgi bug‘doy navlarining tavsiflari va kuzgi bug‘doy yetishtirish agrotexnologiyasi bayon etilgan. Bunda tadqiqot obyekti sifatida fosfat ta‘minoti turlicha bo‘lgan Nurobod tumani och tusli bo‘z va Oqdaryo tumani o‘tloqi-bo‘z tuproqlari, kuzgi bug‘doyning “Aleksyeich” va “Bezostaya 100” navlari, mineral o‘g‘itlardan ammiakli selitra, oddiy superfosfat va kaliy xlorid o‘g‘itlari olingan.

Dissertatsiyaning **“Mineral o‘g‘it me‘yor va nisbatlarini tuproq oziq rejimi, kuzgi bug‘doy navlarining o‘shishi, rivojlanishi, hosildorligi va donning sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri”** deb nomlangan uchinchi bobida o‘tloqi-bo‘z va och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida mineral o‘g‘it me‘yor va nisbatlarini tuproq tarkibidagi harakatchan oziq moddalar miqdoriga, kuzgi bug‘doy navlarining o‘shish va rivojlanishiga, hosildorligi va donning sifatiga ta’siri bayon qilingan.

Samarqand viloyati Nurobod tumani fosfat ta‘minoti turlicha bo‘lgan och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida kuzgi bug‘doyni Aleksyeich navi ekilganda o‘g‘itlashdan oldin nitrat va ammoniy miqdori fonlar bo‘yicha deyarli bir xil bo‘lgan bo‘lsa, mineral o‘g‘itlar qo‘llanilganda tuproqdagi nitrat va ammoniy shaklidagi azot miqdori oshib bordi. Kuzgi bug‘doyni butun vegetatsiya davrida mineral o‘g‘it me‘yori oshib borishi bilan oshib bordi, jumladan fosfat ta‘minoti juda kam fonda eng yuqori natija $N_{210}P_{170}K_{126}$ kg/ga qo‘llanilgan variantda, fosfat ta‘minoti kam fonda $N_{210}P_{145}K_{105}$ kg/ga va fosfat ta‘minoti o‘rtacha fonda esa $N_{210}P_{130}K_{84}$ kg/ga qo‘llanilgan variantda aniqlangan. Fonlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich fosfat ta‘minoti o‘rtacha bo‘lgan fonda kuzatilgan.


Och tusli bo‘z tuproqlarda fosfat ta‘minoti turlicha bo‘lgan sharoitda kuzgi bug‘doyni Bezostaya 100 navi ekilganda tuproq tarkibidagi nitrat va ammoniy shakllaridagi azot miqdori ham oshib borgan. Fosfat ta‘minoti juda kam fonda o‘g‘itlashdan oldin nitrat shaklidagi azot miqdori 10,2-10,9, ammoniy shaklidagi azot miqdori 11,2-11,7 mg/kg ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat variantida vegetatsiya davomida kamayib borgan bo‘lsa, mineral o‘g‘itlar qo‘llanilgan variantlarda yetarli miqdorda bo‘lib, vegetatsiya oxirida nitrat miqdori 16,8-17,5 va ammoniy miqdori esa 17,5-19,6 mg/kg ni tashkil etgan.

Oqdaryo tumani fosfat ta'minoti turlicha bo'lgan o'tloqi-bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyning Alekseyeich navi ekilganda o'g'itlashdan oldin nitrat shaklidagi azot miqdori o'rtacha 14,1-14,4 va ammoniy shaklidagi azot esa 15,0-15,5 mg/kg bo'lgan bo'lsa, nazorat variantida vegetatsiya oxirida kamayib borgan bo'lsa, mineral o'g'it me'yori oshib borishi bilan oshib borgan va vegetatsiya oxirida nitrat miqdori 19,8-21,9 va ammoniy azot miqdori 20,9-23,9 mg/kgni tashkil etdi. Fosfat ta'minoti o'rtacha bo'lgan fonda o'g'itlashdan oldin nitrat 16,3-16,7 va ammoniy 17,1-17,3 mg/kg bo'lgan bo'lsa, vegetatsiya oxiriga kelib o'zlashtirganidan tashqari mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantlarda nitrat miqdori 22,5-25,2 va ammoniy miqdori esa 25,0-27,2 mg/kgni tashkil etgan.

O'tloqi-bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyning Bezostaya 100 navi ekilganda o'g'itlashdan oldin fosfat ta'minoti juda kam bo'lgan fonda nitrat 13,9 – 14,6 va ammoniy 19,2-19,6 mg/kg, kam fonda 14,9-15,8 va 20,2-20,6 va o'rtacha fonda 16,2 -16,6 va 21,2-21,5 mg/kg ni tashkil etgan bo'lsa, fonlar bo'yicha nazorat variantlarida azot miqdori kamayib bordi. Eng yuqori ko'rsatkich fosfat ta'minoti o'rtacha bo'lgan fonda kuzatildi. Ushbu fonda vegetatsiya oxirida nitrat shaklidagi azot 25,6-30,7 va ammoniy azoti esa 23,6-27,0 mg/kg bo'lganligi aniqlangan.

Samarqand viloyati Nurobod tumani och tusli bo'z tuproqlar sharoitida harakatchan fosfor bilan turlicha (juda kam, kam va o'rtacha) ta'minlangan dalalarda turli nisbatda qo'llanilgan mineral o'g'itlarning tuproq tarkibidagi harakatchan fosfor miqdoriga ta'siri o'rganilgan.

Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, harakatchan fosfor miqdori juda kam (0-15 mg/kg) ta'minlangan fonda o'g'itlashdan oldin o'rtacha 12,6 mg/kg ni tashkil etgan. Nazorat (o'g'itsiz) variantda tuplanish fazasida biroz oshib, vegetatsiya oxiriga kelib 8,1 mg/kgni tashkil etgan. Tuproq takibidagi harakatchan fosfor bilan turlicha ta'minlangan 3 ta fonda ham dastlabki miqdoriga nisbatan mos ravishda 2,0; 1,8 va 3,2 mg/kg kamayishi aniqlangan, bu holat kuzgi bug'doyning "Alekseyeich" navini o'zlashtirishi bilan bog'liq. Mineral o'g'it me'yorlarining oshib borishi bilan tuproqda harakatchan fosfor miqdori ham oshib borgan, jumladan eng yuqori ko'rsatkich N₂₁₀P₁₇₀K₁₂₆ kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda kuzatilgan (1 - rasm).




1 – rasm. Mineral o'g'it me'yorlarining tuproq tarkibidagi harakatchan fosfor miqdoriga ta'siri, mg/kg (Nurobod tumani, Alekseyeich navi, haydov qatlami, 2020-2022 yillar).

Harakatchan fosfor bilan kam (15-30 mg/kg) va o‘rtacha (31-45 mg/kg) ta‘minlangan tuproqlarda ham mineral o‘g‘it me‘yorlarini ortib borishi bilan tuproqda harakatchan fosfor miqdori oshib borgan.


Nurobod tumani och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida kuzgi bug‘doyning “Bezostaya 100” navi ekilgan tajriba dalasidagi tuproq tarkibidagi harakatchan fosfor miqdori tahlil qilingan. Harakatchan fosfor bilan juda kam, kam va o‘rtacha ta‘minlangan tuproqlarda o‘g‘itlashda oldin fosfor miqdori o‘rtacha mos ravishda 14,1; 19,4 va 32,1 mg/kg ni tashkil etgan bo‘lsa mineral o‘g‘itlar turli me‘yor va nisbatlarda qo‘llanilganda tuproqda qulay fosfat rejimini hosil qilgan.

Ta‘minlanish darajalari orasida eng yuqori ko‘rsatkich fosforli o‘g‘it me‘yori juda kam va kam ta‘minlangan fonlarga nisbatan kam bo‘lsa ham harakatchan fosfor miqdori yuqori bo‘lganligi aniqlangan. Turli ta‘minlanish darajalarida mineral o‘g‘itlarni har xil me‘yor va nisbatlarda qo‘llanilishi dastlabki miqdoriga nisbatan o‘zlashtirgandan tashqari 0,8 – 2,5 mg/kg yuqori bo‘lganligi aniqlangan (2 - rasm).




2 – rasm. Mineral o‘g‘it me‘yorlarining tuproq tarkibidagi harakatchan fosfor miqdoriga ta‘siri, mg/kg. (Nurobod tumani, Bezostaya 100 navi, haydov qatlami, 2020-2022 yillar).

Oqdaryo tumani o‘tloqi-bo‘z tuproqlar sharoiti olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kuzgi bug‘doyni “Aleksyeich” navi ekilgan dalada harakatchan fosfor bilan juda kam ta‘minlangan fonda N₁₅₀P₁₂₀K₉₀ me‘yorda qo‘lanilgan variantda vegetatsiya davrlari bo‘yicha mos ravishda 17,3; 47,4; 37,8; 29,6 va 18,5 mg/kg ni, harakatchan fosfor kam ta‘minlangan fonda N₁₅₀P₁₀₅K₇₅ kg qo‘llanilgan variantda mos ravishda 23,5; 49,8; 39,9; 31,2 va 24,5 mg/kg ni tashkil etgan (3 - rasm).



3 – rasm. Mineral o‘g‘it me‘yorlarining tuproq tarkibidagi harakatchan fosfor miqdoriga ta‘siri, mg/kg (Oqdaryo tumani, Aleksyeich navi, haydov qatlami, 2020-2022 yillar).

Oqdaryo tumani o‘tloqi-bo‘z tuproqlar sharoiti kuzgi bug‘doyni “Bezostaya 100” navi yetishtirishda tuproq tarkibidagi harakatchan fosfor miqdori tuproqni fosfor bilan ta‘minlanish darajasiga va beriladigan mineral, ayniqsa fosforli o‘g‘it me‘yorlariga bog‘liq. Harakatchan fosfor bilan juda kam ta‘minlangan tuproqda fosforli o‘g‘it me‘yorlari 120, 145 va 170 kg/ga qo‘llanilganda o‘zlashtirganidan tashqari dastlabki miqdoriga nisbatan 1,2-1,7 mg/kg oshgan bo‘lsa, kam ta‘minlangan fonda 105, 125 va 145 kg/ga qo‘llanilganda esa 1,0-1,4 mg/kg ni hosil qilgan, o‘rtacha ta‘minlangan tuproqlarda mos ravishda 90, 110 va 130 kg/ga qo‘llanilganda 0,9 – 1,3 mg/kg ni tashkil etgan (4 – rasm).



4 – rasm. Mineral o‘g‘it me‘yorlari va nisbatlarini o‘tloqi-bo‘z tuproq tarkibidagi harakatchan fosfor miqdoriga ta‘siri, mg/kg.

(Oqdaryo tumani, Bezostaya 100 navi, haydov qatlami, 2020-2022 yillar).

Nurobod tumani och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida kuzgi bug‘doyni Alekseyeich navi fosfor miqdori juda kam ta‘minlangan fonda 2020-yil pishish fazasida o‘simlik bo‘yi 53,0 sm tashkil etgan bo‘lsa, mineral o‘g‘it me‘yorlari oshib borishi bilan o‘simlik bo‘yi 61,7-77,6 sm tashkil etgan, fosfor bilan kam ta‘minlangan fonda 53,2 sm va 61,9-77,7 sm, o‘rtacha ta‘minlangan fonda esa mos ravishda 53,7 va 62,5-78,2 sm bo‘lganligi aniqlangan.

Bezostaya 100 navi pishish fazasida o‘simlik bo‘yi nazorat variantida fonlar bo‘yicha 63,7; 63,8 va 64,2 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, mineral o‘g‘itlar yuqori me‘yorda qo‘llanilgan variantlarda mos ravishda 92,6; 92,6 va 93,0 sm ni tashkil etgan. Alekseyeich naviga nisbatan Bezostaya 100 navi o‘simlik bo‘yi balandroq bo‘lib, bu navlarning xususiyatlariga bog‘liq ekanligi qayd etildi. Yillar bo‘yicha nazorat variantida o‘simlik bo‘yi pasayib borgan bo‘lsa, mineral o‘g‘itlar qo‘llanilgan variantlarda oshib borgan.

Oqdaryo tumani o‘tloqi-bo‘z tuproqlar sharoitida eng past ko‘rsatkich fosfor bilan juda kam ta‘minlangan fonda kuzatilgan bo‘lsa, eng yuqori ko‘rsatkich o‘rtacha ta‘minlangan fonda aniqlangan, 2022-yil Alekseyeich navida I-fonda nazorat variantida o‘simlik bo‘yi 53,0 sm, III –fon mineral o‘g‘itlar me‘yori N₂₁₀ P₁₃₀ K₈₄ kg/ga qo‘llanilgan variantda 81,3 sm ni tashkil etgan.

Oqdaryo tumani o‘tloqi-bo‘z tuproqlar sharoitida kuzgi bug‘doyni Bezostaya 100 navida fosfat ta‘minoti juda kam bo‘lgan nazorat variantida kuzgi bug‘doyni pishish fazasida 2020-yil 64,8 sm, 2021-yil 63,8 sm va 2022-yil 66,3 sm bo‘lgan bo‘lsa, mineral o‘g‘itlar turli me‘yor va nisbatlarda qo‘llanilgan variantlarda 2020-yil 75,0-93,7 sm, 2021-yil 77,4-92,6 sm va 2022-yil 76,3-92,3

sm bo'lgan. Eng yuqori ko'rsatkich fosfat ta'minotii o'rtacha bo'lganda mineral o'g'itlar me'yor $N_{210}P_{130}K_{84}$ variantda aniqlangan.

Nurobod tumani och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyning Alekseyeich navidan fosfor ta'minoti juda kam bo'lgan nazorat o'g'itsiz variantida 2020 yil o'rtacha 36,5 s/ga, fosfor ta'minoti kam bo'lganda 38,3 va o'rtacha bo'lgan fonda esa 40,2 s/ga hosil olingan bo'lsa, mineral o'g'itlar turli me'yor va nisbatlarda qo'llanilganda hosildorlik keskin oshib borgan. (1-jadval).

1-jadval

Turli fosfat fonida kuzgi bug'doy hosildorligi, s/ga.

(Nurobod tumani, Alekseyeich navi)

Fon	Variantlar	Yillar bo'yicha hosildorlik			Uch yilda o'rtacha hosildorlik	Nazoratga nisbatan olingan qo'shimcha hosil
		2020	2021	2022		
I-fon	Nazorat (o'g'itsiz)	36,5	34,7	33,1	34,8	0
	$N_{150} P_{120} K_{90}$	58,5	59,8	61,5	59,9	25,1
	$N_{180} P_{145} K_{108}$	61,3	63,0	64,9	63,1	28,3
	$N_{210} P_{170} K_{126}$	66,0	68,3	70,4	68,2	33,4
II-fon	Nazorat (o'g'itsiz)	38,3	36,8	35,4	36,8	0
	$N_{150} P_{105} K_{75}$	60,7	62,4	64,5	62,5	25,7
	$N_{180} P_{125} K_{90}$	65,4	67,5	68,4	67,1	30,3
	$N_{210} P_{145} K_{105}$	68,7	71,1	72,9	70,9	34,1
III-fon	Nazorat (o'g'itsiz)	40,2	38,9	37,8	39,0	0
	$N_{150} P_{90} K_{60}$	64,7	66,6	70,2	67,2	28,2
	$N_{180} P_{110} K_{72}$	67,8	70,1	73,1	70,3	31,3
	$N_{210} P_{130} K_{84}$	70,6	73,7	76,4	73,6	34,6
	EKIF ₀₅	4,38	4,78	5,19		
	EKIF ₀₅ (A)	2,19	2,39	2,60		
	EKIF ₀₅ (B)	2,53	2,76	3,00		
	Sx%	2,66	2,84	3,02		

Jumladan, fosfor ta'minoti juda kam bo'lganda eng yuqori hosil $N_{210}P_{170}K_{126}$ kg/ga qo'llanilgan variatnda 66,0 s/ga olingan bo'lsa, fosfor ta'minoti kam bo'lganda $N_{210}P_{145}K_{105}$ kg/ga variantida 68,7 s/ga va o'rtacha ta'minlanganda esa $N_{210}P_{130}K_{84}$ kg/ga qo'llanilgan variantda 70,6 s/ga tashkil etgan.

Nurobod tumani och tusli bo'z tuproqlar sharoitida fosfor bilan turlicha ta'minlanganda qo'llanilgan mineral o'g'it me'yor va nisbatlari kuzgi bug'doyning Bezostaya 100 navi hosildorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. 2020-yil o'g'itsiz nazorat variatnlarida mos ravishda 46,4; 49,0 va 51,5 s/ga tashkil etgan bo'lsa, bu tajribada ham mineral o'g'itlar yuqori me'yorda qo'llanilgan variantlarda yuqori hosil olingan. Eng yuqori hosil fosfat ta'minoti o'rtacha bo'lgan fonda mineral o'g'itlar me'yor $N_{210}P_{130}K_{84}$ kg/ga qo'llanilgan variantda olingan (2-jadval).

2- jadval

Turli fosfat fonida kuzgi bug‘doy hosildorligi, s/ga
(Nurobod tumani, Bezostaya 100 navi)

Fon	Variantlar	Yillar bo‘yicha hosildorlik			Uch yilda o‘rtacha hosildorlik	Nazoratga nisbatan olingan qo‘shimcha hosil
		2020	2021	2022		
I-fon	Nazorat (o‘g‘itsiz)	46,4	45,2	43,8	45,1	0,0
	N ₁₅₀ P ₁₂₀ K ₉₀	74,8	75,6	75,9	75,4	30,3
	N ₁₈₀ P ₁₄₅ K ₁₀₈	79,3	80,8	82,4	80,8	35,7
	N ₂₁₀ P ₁₇₀ K ₁₂₆	86,0	88,2	91,5	88,6	43,5
II-fon	Nazorat (o‘g‘itsiz)	49,0	48,4	46,5	48,0	0,0
	N ₁₅₀ P ₁₀₅ K ₇₅	77,6	80,1	80,5	79,4	31,4
	N ₁₈₀ P ₁₂₅ K ₉₀	84,0	86,3	89,2	86,5	38,5
	N ₂₁₀ P ₁₄₅ K ₁₀₅	88,3	90,6	93,1	90,7	42,7
III-fon	Nazorat (o‘g‘itsiz)	51,5	50,9	48,7	50,4	0,0
	N ₁₅₀ P ₉₀ K ₆₀	82,2	85,5	89,0	85,6	35,2
	N ₁₈₀ P ₁₁₀ K ₇₂	84,7	87,3	90,8	87,6	37,2
	N ₂₁₀ P ₁₃₀ K ₈₄	87,2	89,9	93,6	90,2	39,8
EKIF ₀₅		4,63	5,07	4,38		
EKIF ₀₅ (A)		2,33	2,53	2,19		
EKIF ₀₅ (B)		2,69	2,93	2,53		
S _x %		2,20	2,37	2,01		

Kuzgi bug‘doy hosildorligi va mineral o‘g‘it me‘yor va nisbatlari orasidagi bog‘liqlik $y=ax+b$ regressiya tenglamasiga bo‘ysinib, korrelatsiya koeffitsiyentlari Alekseyeich navida $r=0,98-0,99$ va Bezostaya 100 navida $r=0,97-0,99$ bo‘lganligi aniqlangan (3- jadval).

3-jadval

Mineral o‘g‘it me‘yor va nisbatlari va kuzgi bug‘doy navlari
hosildorligi orasidagi bog‘liqlik. (Nurobod tumani, och tusli bo‘z tuproqlar).

Fon	Variantlar	Alekseyeich navi		Bezostaya 100 navi	
		Regressiya tenglamasi	Korrelatsiya koeffitsienti	Regressiya tenglamasi	Korrelatsiya koeffitsienti
I-fon	N ₁₅₀ P ₁₂₀ K ₉₀	Y=4,1x+55,4	r=0,98	Y=6,6x+68,4	r=0,98
	N ₁₈₀ P ₁₄₅ K ₁₀₈				
	N ₂₁₀ P ₁₇₀ K ₁₂₆				
II-fon	N ₁₅₀ P ₁₀₅ K ₇₅	Y=4,2x+58,4	r=0,99	Y=5,6x+74,2	r=0,97
	N ₁₈₀ P ₁₂₅ K ₉₀				
	N ₂₁₀ P ₁₄₅ K ₁₀₅				
III-fon	N ₁₅₀ P ₉₀ K ₆₀	Y=3,2x+63,9	r=0,99	Y=2,3x+83,2	r=0,98
	N ₁₈₀ P ₁₁₀ K ₇₂				
	N ₂₁₀ P ₁₃₀ K ₈₄				

Oqdaryo tumanidagi fosfor bilan juda kam, kam va o'rtacha ta'minlangan o'tloqi-bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyning Alekseyeich navi yillar (2020-2022) bo'yicha o'rtacha nazorat variantlarida 35,9; 37,5 va 39,1 s/ga hosil olingan (4 - jadval).

4-jadval

Turli fosfat fonida kuzgi bug'doy hosildorligi, s/ga (Oqdaryo tumani, Alekseyeich navi)

Fon	Variantlar	Yillar bo'yicha hosildorlik			Uch yilda o'rtacha hosildorlik	Nazoratga nisbatan olingan qo'shimcha hosil
		2020	2021	2022		
I-fon	Nazorat (o'g'itsiz)	37,5	35,9	34,2	35,9	0,0
	N ₁₅₀ P ₁₂₀ K ₉₀	59,7	61,0	62,5	61,1	25,2
	N ₁₈₀ P ₁₄₅ K ₁₀₈	62,4	63,7	65,5	63,9	28,0
	N ₂₁₀ P ₁₇₀ K ₁₂₆	67,1	69,6	71,5	69,4	33,5
II-fon	Nazorat (o'g'itsiz)	39,0	37,7	35,7	37,5	0,0
	N ₁₅₀ P ₁₀₅ K ₇₅	62,0	62,4	65,5	63,3	25,8
	N ₁₈₀ P ₁₂₅ K ₉₀	66,6	67,5	71,4	68,5	31,0
	N ₂₁₀ P ₁₄₅ K ₁₀₅	69,0	70,1	73,4	70,8	33,3
III-fon	Nazorat (o'g'itsiz)	40,7	39,4	37,3	39,1	0,0
	N ₁₅₀ P ₉₀ K ₆₀	66,2	67,6	71,7	68,5	29,4
	N ₁₈₀ P ₁₁₀ K ₇₂	67,5	69,6	73,1	70,1	31,0
	N ₂₁₀ P ₁₃₀ K ₈₄	70,1	71,9	74,9	72,3	33,2
	EKIF ₀₅	3,99	4,67	3,51		
	EKIF ₀₅ (A)	2,00	2,33	1,75		
	EKIF ₀₅ (B)	2,31	2,69	2,02		
	Sx%	2,39	2,76	2,02		

Juda kam ta'minlangan fonda eng yuqori hosil N₂₁₀P₁₇₀K₁₂₆ kg/ga qo'llanilgan variantda 69,4 s/ga, kam ta'minlanganda N₂₁₀P₁₄₅K₁₀₅ kg/ga qo'llanilgan variantda 70,8 olingan bo'lsa, o'rtacha ta'minlangan fonda esa N₂₁₀P₁₃₀K₈₄ kg/ga qo'llanilgan variantda 72,3 s/ga olingan

Bezostaya 100 navida nazorat o'g'itsiz variantlarda o'rtacha hosildorlik 47,1; 50,1 va 52,7 s/ga tashkiletgan bo'lsa, mineral o'g'itlar turli me'yor va nisbatlarda qo'llanilganda yuqori hosil olingan.

Tadqiqot yillari bo'yicha mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantlarda hosildorlik oshib bordi. 2022-yil fosfat ta'minoti juda kam bo'lgan fonda mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantlarda 79,9-91,6 s/ga, fosfat ta'minoti kam bo'lganda 82,1-93,6 s/ga va fosfat ta'minoti o'rtacha bo'lganda esa 88,3 -94,7 s/ga hosil olingan (5-jadval).

5-jadval

Turli fosfat fonida kuzgi bug‘doy hosildorligi, s/ga
(Oqdaryo tumani, Bezostaya 100 navi)

Fon	Variantlar	Yillar bo‘yicha hosildorlik			Uch yilda o‘rtacha hosildorlik	Nazoratga nisbatan olingan qo‘shimcha hosil
		2020	2021	2022		
I-fon	Nazorat (o‘g‘itsiz)	48,4	47,2	45,8	47,1	0,0
	N ₁₅₀ P ₁₂₀ K ₉₀	77,8	78,6	79,9	78,8	31,7
	N ₁₈₀ P ₁₄₅ K ₁₀₈	82,5	83,8	85,9	84,1	37,0
	N ₂₁₀ P ₁₇₀ K ₁₂₆	89,2	91,2	94,5	91,6	44,5
II-fon	Nazorat (o‘g‘itsiz)	51,0	50,4	49,0	50,1	0,0
	N ₁₅₀ P ₁₀₅ K ₇₅	80,6	81,8	84,0	82,1	32,0
	N ₁₈₀ P ₁₂₅ K ₉₀	86,7	88,0	91,4	88,7	38,6
	N ₂₁₀ P ₁₄₅ K ₁₀₅	91,2	93,6	96,1	93,6	43,5
III-fon	Nazorat (o‘g‘itsiz)	53,5	52,9	51,7	52,7	0,0
	N ₁₅₀ P ₉₀ K ₆₀	85,1	87,5	92,2	88,3	35,6
	N ₁₈₀ P ₁₁₀ K ₇₂	88,4	89,5	93,0	90,3	37,6
	N ₂₁₀ P ₁₃₀ K ₈₄	92,4	93,9	97,8	94,7	42,0
EKIF ₀₅		5,72	4,98	6,63		
EKIF ₀₅ (A)		2,86	7,49	3,32		
EKIF ₀₅ (B)		3,30	2,87	3,83		
Sx%		2,62	2,25	2,93		

Oqdaryo tumanidagi fosfor bilan juda kam, kam va o‘rtacha ta‘minlangan o‘tloqi-bo‘z tuproqlar sharoitida kuzgi bug‘doyning Alekseyeich va Bezostaya 100 navlari hosildorligi va mineral o‘g‘itlar me‘yori va nisbatlari orasidagi bog‘liqlik $y=ax+b$ regressiya tenglamasiga bo‘ysinib, korrelyatsiya koeffitsiyentlari Alekseyeich navida $r = 0,97 - 0,99$ ga teng bo‘lgan bo‘lsa, Bezostaya 100 navida $r = 0,97 - 0,99$ ni tashkil etgan. (6-jadval).

6- jadval

Mineral o‘g‘it me‘yor va nisbatlari va kuzgi bug‘doy navlari hosildorligi orasidagi bog‘liqlik (Oqdaryo tumani, o‘tloqi-bo‘z tuproqlar)

Fon	Variantlar	Alekseyeich navi		Bezostaya 100 navi	
		Regressiya tenglamasi	Korrelyatsiya koeffitsienti	Regressiya tenglamasi	Korrelyatsiya koeffitsienti
I-fon	N ₁₅₀ P ₁₂₀ K ₉₀	Y=4,2x+56,5	r=0,97	Y=6,4x+72,1	r=0,99
	N ₁₈₀ P ₁₄₅ K ₁₀₈				
	N ₂₁₀ P ₁₇₀ K ₁₂₆				
II-fon	N ₁₅₀ P ₁₀₅ K ₇₅	Y=3,7x+60,1	r=0,96	Y=5,7x+76,6	r=0,99
	N ₁₈₀ P ₁₂₅ K ₉₀				
	N ₂₁₀ P ₁₄₅ K ₁₀₅				
III-fon	N ₁₅₀ P ₉₀ K ₆₀	Y=1,9x+66,5	r=0,97	Y=3,2x+84,7	r=0,96
	N ₁₈₀ P ₁₁₀ K ₇₂				
	N ₂₁₀ P ₁₃₀ K ₈₄				

Och tusli bo'z va o'tloqi-bo'z tuproqlar sharoitida ham kuzgi bug'doy navlari hosildorligi va mineral o'g'itlar me'yorlari va nisbatlari orasidagi bog'liqlik tig'iz ekanligi isbotlangan.

Donning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2020-2022-yillari fosfor bilan juda kam ta'minlangan fonda nazorat variantida oqsil miqdori 12,7 %, kleykovina miqdori 25,5 %, shishasimonligi 67 %, don naturasi 750 g/l va IDK ko'rsatkichi 75 ni tashkil etgan bo'lsa, mineral o'g'itlar me'yorlari oshib borishi bilan oqsil 13,5 – 14,1 % ga, kleykovina 27,8 – 29,1 % ga, shishasimonligi 70 – 75 % ga oshgan bo'lsa, don naturasi 771 – 791 g/l ga IDK ko'rsatkichi esa 80 - 87 ga oshganligi aniqlan.

